ISSN 2181-3187

# O'SMIRLARDA AQLIY RIVOJLANISHNING FIZIOLOGIK TOMONLARI

***Toshboltayeva Nodiraxon Ibroximjonovna***
*FarDU o'qituvchisi*
***Sobirova Azizaxon Maribjon qizi***
***Nabiyeva Nigora Shuhratjon qizi***
*FarDU talabalari*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o'smirlarning aqliy rivojlanishida ro'y beradigan psixik va fiziologik o'zgarishlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Emansipatsiya, assimilyatsiya, gormonal bo'ron, xarakterli rollar, marginallik.

O'smirlik - yosh bolalik davrini tugallanishi hisoblanadi. O'smir o'zini katta insonlardek his qila boshlaydi, atrofdagi barcha shaxslar uni mustaqilligini tan olishini istaydi. O'smirlardagi o'z mustaqilligini tan oldirilishi fanda emansipatsiya jarayoni hisoblanadi. O'z shaxsini yetuk his qilish o'smirlik davrining psixologik belgisidir. O'smirlik davrining o'zgarishlariga D.B.Elkonin quyidagicha ta'rif beradi: " kattalik tuyg'usi - bu ongning yangi shakllanishi, bu orqali o'smir o'zini boshqalar bilan taqqoslaydi, assimilyatsiya qilish uchun modellarni topadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarini quradi, faoliyatini qayta tashkil qiladi". Balog'atga yetish davrida organizmda " gormonal bo'ron" bo'ladi. Hozirgi jamiyatimizda ijtimoiy yetuklik balog'at yoshiga to'g'ri kelmaydi. O'smir shaxsining rivojlanishi Z.Freyd tomonidan psixoanalitik tarzda tahlil qilingan. O'smirlik davrida jinsiy quvvatning ko'tarilishi kuzatiladi, buning natijasida oldin o'rnatilgan shaxsiy tuzilmalar buziladi. E.Erikson o'smirlik va yoshlik davrini muammoni hal qilishning markaziy davri deb hisoblagan.

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. O'smirlik davrida aqliy, ijtimoiy, axloqiy, jismoniy rivojlanishning mazmun mohiyati o'zgaradi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog'atga yetish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik davrida gipofiz bezining faolligi ortadi. Gipofiz bezining old qismidan ajralib chiqadigan tropgormonlar organizm to'qimalarining o'sishi va boshqa muhim ichki sekretsiya bezlarining ishlashini kuchaytiradi. Bo'yning o'sishi, vaznning ortishi, ko'krak qafasining kengayishi bularning barchasi jismoniy rivojlanishning o'smirlik yoshiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davrida endokrin va nerv sistemalari faoliyatining bolalik davrida mavjud bo'lgan muvozanati buziladi va yangisi o'rnatiladi. Bunday o'zgarishlar o'smirlarning ichki holati, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi va uning ta'sirlanuvchanligiga, serjahlligiga, vaqti-vaqti bilan atrofdagi voqea hodisalarga befarq bo'lishiga, lanjlashishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik

yuzaga keladi. Organizmda boʻlayotgan oʻzgarishlar natijasida oʻsmir oʻzini yomon his qiladi, atrofdagilar hattoki uning ota - onasi ham uni tushunmayotgandek tuyuladi. Buni sezmagan ba’zi ota-onalar «bolam nihoyatda qaysar, quloqsiz bo’lib qoldi», deb o’ylaydilar va shikoyat qilishga tushadilar, unga qarshi chora-tadbirlar belgilashlari natijasida, ota-ona va bola bir-birlarini tushunolmay qoladilar, bolaning ota-onadan bezish hollari kuzatiladi. Ota- onalar va oʻsmirlar oʻrtasidagi nizolar kattalarning nizolaridan farq qiladi, sababi oʻsmirlar vaziyatni oqilona tushunishdan koʻra hissiyotlarga tayanadi. Bu davrda oʻsmirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadi. Kattalarning oʻsmirlarga ta’sir koʻrsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit bu umumiy mehnat bilan shugʻullanishdir. Kattalar oʻsmirlar bilan doʻstona, uni toʻla tushungan holda va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga oʻsmirlar ijobiy reaksiya bildiradilar, lekin bu rahbarlik kattalarning xohish-istagi ustunligida kechsa, bunday holatda ular toʻla qarshilik koʻrsatadi. Bunday holatlar natijasida turli nizolar kelib chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Egamberdiyev, O. A. O., Turdaliyev, A. Y. O., & Maxamadjonov, J. Z. O. (2021). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. *Science and Education*, *2*(11), 985-991.

2. Zarnigor, R. A. Q., Egamberdiyev, O. A. O. G. L., & Sotvoldiyeva, O. M. R. Q. (2021). Pedagogik kompetentlikning: nazariy va amaliy tahlili. *Science and Education*, *2*(9), 309-314.

3. Egamberdiyev, O. A. O., Sotvoldiyeva, O. M. Q., & Turdaliyev, A. Y. O. (2021). PEDAGOGIK MAHORATNING MUAMMOLI O’ZLASHTIRISH YO’LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(10), 535-542.

4. Yusufovich, A. A., & O’G’Li, E. O. A. (2022). BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOIK ASOSLARI. *Science and innovation*, *1*(B3), 40-46.

5. Alisher oʻgʻli, E. O. (2022). O ‘ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN’AT TARIXI MASALALARI. *Journal of new century innovations*, *14*(3), 33-36.

6. Alisher o'g'li, E. O. (2022). O’QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Journal of new century innovations*, *4*(1), 52-59.

7. Alisher oʻgʻli, Y. O. (2022). IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA’SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, *18*(1), 220-225.

8. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF

ISSN 2181-3187

PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *8*(7).

9. Tojimamatov, J., & Egamberdiyev, O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON.

10. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.

11. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, *1*(3), 162-165.

12. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, *1*(3), 166-169.

13. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, *1*(3), 158-161.

14. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 63-65.

15. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(4), 63-65.

16. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, *9*(3), 4-7.